



ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA GAZLAMA SIFATINI TEKSHIRISH VA MATOLARNI TO`SHAMAGA MO`LJALLAB XILLASH

Umarova Nigora

Farg'ona viloyati Oltiariq tumani 2-son kasb-hunar maktabi Tikuvchilik yo'nalishi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Qabul qilib olingan gazlama hozirgi vaqtda aniq o'lchovga ega bo'lishi uchun elektron o'lchov asboblariidan foydalaniladi. Bugungi kunda tikuvchilik korxonalarining tayyorlov sehda chet elda ishlab chiqarilgan nuqson aniqlovchi mashinalardan keng foydalanib kelinmoqda. Shuning uchun bu maqolada ishlab chiqarish korxonalarida gazlama sifatini tekshirish va matolarni to'shamaga mo'ljallab xillash yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Gazlama sifati, matolarni to'shah, gazlamalarni xillash, gazlama sifatini tekshiruvchi qurilmalar.*

Аннотация: *электронные измерительные приборы используются для того, чтобы полученный газ можно было точно измерить в данный момент. Сегодня в подготовительных цехах швейных предприятий широко используются дефектные машины зарубежного производства. Поэтому в этой статье рассматривается проверка качества газировки на производственных предприятиях и сортировка тканей для постельного белья.*

Ключевые слова: *Качество газировки, постельное белье, сортировка газировки, устройства для проверки качества газировки.*

Bichishdan avval gazlama sifatini K 1600 MM markali maxsus jihozda tekshiriladi, o'lchanadi va nuqsonlari aniqlanadi (9-rasm). Bu jihoz yordamida bir vaqtning o'zida gazlamaning sifati tekshiriladi, deformatsiyasi va nuqsonlari aniqlanadi. K 1600 MM markali jihozida maxsus datchik bo'lib, u gazlamaning necha metrda nuqson borligini aniqlab beradi. Nazoratchi esa gazlamaning nuqsonini qayd etib turadi. K 1600 MM markali jihozida 1 daqiqada 5-7 metrgacha gazlamani uzunligi va eni bo'yicha o'lchash imkoniyatiga ega. K 1600 MM markali jihoziga gazlama to'pi valikka o'rnatiladi va maxsus mexanizm bosish orqali harakatga keltiriladi. Nuqsoni aniqlangan joy, bichish jarayonida aniq ko'rinishi uchun nuqson topilgan joyga gazlama rangidan ajralib turadigan belgi qo'yib borish shart. K 1600 MM markali jihozida tomonidan 1500C dan 1600C, gacha issiqlik bilan nazorat qilinib, bu qurilma gazlamani bichish qurilmasiga tayyor rulon xolatida tayyorlab beradi

Tekshirilgan 2-3 metrgacha qisqarishi ya'ni kirishishi mumkiun. Tekshirilgan gazlama o'ramlari tayyorlov sehning saqlash qutilari, maxsus tokchalarda yakka- yakka xolda saqlanadi. Tekshirilgan material o'ramlarini, bichiq, qavatlarini quticha yoki qavatlardagi buyumlarni ko'p qavatli tokchali 32 jovonlarga joylab yakka-yakka saqlash joyiga tashib borishga va ularni boshqa transportga ortib berishga moslashgan. Tekshirilgan gazlamani pasporti yoziladi.



1-rasm. Gazlama sifatini tekshiradigan va nuqsonini aniqlaydigan K 1600 MM markali maxsus dastgoh.

K 1600 MM jihozida yuqori harorat (issiqlik) matoni kirishuvchanligi va cho`ziluvchanligini yo`qotadi, mustahkamligini oshiradi va presslaydi K 1600 MM jihozining ishlash standart talablari; Bichish tsehidagi bichuv stolining uzunligi 25 m, 2,20 sm. Stolning ustiga gazlamaning siljib ketmasligi uchun to`shama tagidan maxsus teshikchali karton qog`oz yotqiziladi. Ustidan grammajiga qarab 100 qavatgacha gazlama to`shaladi. To`shamaning ustiga elektron tayyorlangan andoza joylashtiriladi. Andozaning ustidan plyonka qoplanadi va to`rt tomonidan og`ir tosh bostirib qo`yiladi. Ushbu qirqish jihozi vakumga ishlaydi. Andazaning ustidan to`shalgan plyonka vaakumni ushlab turadi. Pichoqli jihozning tezligi gazlamaning qavatiga qarab moslanadi. Masalan: qavatlar soni ko`p bo`lsa tezlik kamaytiriladi, qavatlar soni oz bo`lsa aksincha, tezlik oshiriladi. Bichuv tsehidagi "TESAN AS 200 TT" markali gazlamalarni to`shash jihozi Turkiyada ishlab chiqarilgan



2-rasm. "TESAN AS 200 TT" markali gazlamalarni to`shash jihozi



Bundan 10-15 yil avval 4 yoki 6 ta ishchi ishtirokida gazlamalarni qo'lda to'shalgan. Hozirgi kunga kelib maxsus to'shash jihozlari monitoring yordamida boshqarilib, unga gazlamaning eni va uzunligi o'lchami kiritiladi. Ushbu o'lcham bo'yicha "TESAN AS 200 TT" jihoz gazlamani avtomatik to'shaydi. To'shalgan gazlama chetini bitta ishchi tekislab turadi.



3-rasm. Ensiz gazlamalarni to'shash usul

Hozirgi kndagi zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari va ma'sulyati cheklangan jamiyatida 3 ta 25 metrli bichuv stoli joylashgan bo'lib, ushbu stollarning birinchisiga asosiy ya'ni kostyumli gazlamalar, ikkinchi stolga astarli, qotirmali (flezilin va dublirin)lar va issituvchi qatlamli gazlamalar to'shalsa, uchinchi ignali yarim avtomat bichish stoliga esa 35 katak-katak chiziqli gazlamalarni to'shashga mo'ljallangan. Gazlamadagi katak chiziqlari asosan 3, 4 va 5 sm. bo'llishi mumkin. Mayda katakli gazlamalar 20 qavatgacha, katta kataklar esa 40 qavatgacha to'shaladi Hozirgi kunda —Ideal Textil Orzul ma'sulyati cheklangan jamiyatida poliester+viskozali kostyumli gazlamadan bolalar o'quv formasini ishlab chiqarmoqda. Kuzgi mavsum uchun paxta+junli kostyumli gazlamalarni ham tavsiya etilmoqda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Г.К.Хасанбоева, О.И.Кримова —Кийим моделини ишлаш ва конструкциясини тайёрлаш|| Тошкент-1999 йил.
2. Комилова Х.Х., Ҳамраева Н.К —Тикув буюмларини конструкциялаш|| Тошкент 2003 й.
3. Madjidova Sh.G., Rasulova M.K "Texnologik jarayonlarni loyihalash" Darslik. Toshkent-2011 yil.
4. Г.Қ.Кулижанова, С.С.Мусаев —Енгил саноат маҳсулотлари технологияси|| Ўқув қўлланма. Тошкент-2002 йил.
5. Нигматова Ф.У. —Енгил саноат маҳсулотларини лойиҳалашнинг автоматлаштирилган системаси|| фанидан маърузалар матни. Тошкент-2015 йил.



6. Нигматова Ф.У., Хожиматов Р.С., Шомансурова М.Ш —Тикув буюмларини лойиҳалашнинг автоматлаштирилган системаси| фанидан тажриба машғулотларини бажариш учун услубий қўлланма. Наманган-2016 йил.